

**Biznes va tadbirkorlikning raqamli ko'nikmalarini rivojlantirish va kambag'allikni
qisqartirishning ustuvor yo'nalishlari****Umirov Abdusalom To'rayevich**

dotsent PhD, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Raximboyeva Gulasal Rustam qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti talabasi

gulasalraximboyeva0214@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu tezisdagi O'zbekistonning ilmiy-innovatsion salohiyatini oshirish, biznes va tadbirkorlik sohalariga raqamli ko'nikmalarni joriy etishga bo'lgan ehtiyoj o'rganilgan. Muallif iqtisodiyot tarmoqlarida raqamli iqtisodiyot elementlarini joriy etish uchun ilmiy muassasalar, davlat va idoralar o'rtasida faol hamkorlikni yo'lga qo'yishi kerak ekanligini ta'kidlaydi. Tezisdagi kambag'allikni kamaytirish va aholi farovonligini ta'minlash uchun O'zbekiston aholisining ilmiy, raqamli bilimlarini va innovatsion salohiyatini rivojlantirish muhimligi keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: innovatsiya, raqamli iqtisodiyot, O'zbekiston iqtisodiyoti, biznesni raqamlashtirish, kambag'allikni qisqartirish.

Oxirgi paytlarda “Raqamli iqtisodiyot” tushunchasi aholi qatlamlari orasida keng tarqalgan. Darhaqiqat, ko'plab rivojlangan davlatlarda ularning raqamli iqtisodiyoti rivojlanish omillariga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatgan. Aholi turmush tarzida raqamli iqtisodiyot muhim ahamiyat kasb etadi. Shu jumladan, jamiyat hayotida muhim ahamiyat kasb etuvchi jarayonlardan biri sanalmish, raqamli iqtisodiyot sharoitida biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishning dolzarb masalalari to'g'risida so'z borar ekan, eng avvalo biznesni raqamlashtirish tushunchasiga to'xtalib o'tamiz:



Biznesni raqamlashtirish – biznes jarayonlarini optimallashtirish, korxonaning ishlab chiqarish unumdorligini oshirish va mijozlar bilan hamkorlikni yaxshilash uchun raqamli texnologiyalardan foydalanishni ko‘zda tutuvchi biznesni transformatsiyalashdir.

Mamlakatimizda kambag‘allikni qisqartirish davlat siyosatining ustuvor vazifasi sifatida belgilanishi bilan birga bu boradagi ilmiy ishlar ham jadallashdi. Iqtisodiyot sohasining ilmiy mutaxassis va olimlari tomonidan bir qator ilmiy ishlar olib borilmoqda. Jumladan, N.Ernazarova mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida, aholi bandligi va daromadini oshirishda eng asosiysi tadbirkorlikni rivojlantirish orqali mamlakatda kambag‘allikni qisqartirishda tadbirkorlik sohalari, jumladan, oilaviy biznes sohasi faoliyati muhim ahamiyat kasb etib, iqtisodiy hamda ijtimoiy muammolarni hal etishda yetakchi o‘rinni egallashi haqidagi fikrni ilgari surgan.

Malakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta‘minlashda tadbirkorlikni rivojlantirish muhim yo‘nalish sifatida belgilab olingan. Tadbirkorlik faoliyatini yanada rivojlantirish uchun mustahkam qonunchilik va huquqiy baza shakllantirilgani va muntazam takomillashtirib borilayotgani, biznes uchun imtiyoz va preferensiyalar berish, ishlab chiqarishni texnik va texnologik qayta jihozlash hamda modernizasiya qilish masalalarida davlat tomonidan tizimli ravishda yordam ko‘rsatilayotganini alohida ta‘kidlash lozim. O‘tgan davr mobaynida mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasining yuksalishi, xususiyl tadbirkorlik sub‘ektlari uchun yaratilgan qulay shart-sharoitlar natijasida iqtisodiy salohiyati ortgan ko‘plab korxonalar mazkur imtiyozlardan foydalanishni davom ettirish maqsadida o‘z xodimlari sonini belgilangan miqdoriy chegara doirasida saqlab qolishga harakat qilmoqdalar. Bu esa, ularning yiriklashish jarayoniga to‘sqinlik qilmoqda.

O‘zbekiston Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi hamda BMTTD raqamli tadbirkorlikni rivojlantirish uchun yoshlar imkoniyatlarini kengaytirish loyihasini ishga tushirdi. Uning umumiy qiymati – 2,1 million dollar. Loyiha raqamli tadbirkorlik muhitini va yosh tadbirkorlarning raqamli ko‘nikmalarini yaxshilash, raqamli iqtisodiyot va raqamli tadbirkorlik siyosatini rivojlantirish uchun yoshlarni jalb qilgan holda institutsional salohiyatni kuchaytirish, to‘siqlarni kamaytirish va yoshlarning



raqamli biznes loyihalari va startaplari uchun yaxshi moliyalashtirish imkoniyatlarini yaratishga qaratilgan. Hukumat tomonidan yangi ish o'rinlari yaratish, yangi bozorlarga chiqish, innovatsiyalarni joriy etish va iqtisodiyotning yangi tarmoqlarini rivojlantirishda raqamli texnologiyalar imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish borasidagi sa'y – harakatlar shular jumlasidandir. BMTTD va milliy hamkorlar o'rtasidagi yangi hamkorlik O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotni yanada rivojlantirishni qo'llab – quvvatlash, raqamli tadbirkorlik ko'nikmalari, vositalar va qulay muhit orqali yoshlar, ayniqsa ayollarning imkoniyatlarini kengaytirish bo'yicha chora – tadbirlar ishlab chiqishga qaratiladi. Bu bandlik imkoniyatlarini, raqobatbardoshlikni, COVID – 19 va shunga o'xshash inqirozlarga chidamliligini oshirish, shu orqali tengsizlikni kamaytirish, inklyuziv, innovatsion va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash va yangi ish o'rinlarini yaratish kabi umumiy maqsadga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 26.03.2020 yildagi PF-5975-sonli farmonida hududlarda aholining turmush darajasi va sifatini yaxshilash, xususan kambag'allikni qisqartirish vazifalari ko'p jihatdan iqtisodiyotning barcha tarmoq va sohalarining raqobatbardoshligini oshirish hamda tadbirkorlikni rivojlantirish uchun fundamental sharoitlarni yaratib berish hisobiga yangi va barqaror ish o'rinlarini tashkil etish bilan bevosita bog'liqdir deyiladi.

Bu, o'z navbatida, iqtisodiyotni tarkibiy jihatdan isloh qilish va rivojlanishiga aloqador vazirlik va idoralar faoliyati uyg'unligini ta'minlashni, mavjud muammo va to'siqlarni tezkorlik bilan aniqlash va bartaraf etishga asoslangan zamonaviy va inklyuziv institutsional tizimni joriy etishni talab etadi. Xususan:

birinchidan, makroiqtisodiy barqarorlik, iqtisodiy o'sish maqsadlari va tarkibiy islohotlar o'rtasidagi muvofiqlikni ta'minlash, shuningdek, tashqi va ichki omillar ta'sirida yuzaga keladigan iqtisodiy sikllarni boshqarishning zamonaviy prognozlashtirish modellariga asoslangan samarali tizimi va mexanizmlarini joriy etish jarayoni kechikmoqda;

ikkinchidan, kambag'allikni qisqartirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish bo'yicha yaxlit tizim va muvofiqlashtiruvchi davlat organi, me'yoriy-



huquqiy baza, mezonlar va baholash uslubiyotining mavjud emasligi, shuningdek, ushbu yo'nalishdagi ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va tadbirkorlikka jalb qilish vazifalarining aniq ajratib olinmaganligi sababli tegishli aholi guruhlari bilan amalga oshirilayotgan ishlarning samaradorligi past darajada qolmoqda;

uchinchidan, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha aniq yondashuv va tamoyillar to'liq shakllantirilmagan, iqtisodiyotning hududiy va tarmoq rivojlanishi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik ta'minlanmasdan hamda hududlarni rivojlantirishdagi mavjud salohiyat va “nisbiy ustunlik” mezonlaridan oqilona foydalanish va ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishda inson kapitali va demografik omillar inobatga olinmasdan qolmoqda;

to'rtinchidan, mamlakatda kichik va o'rta biznesni rivojlantirishning aniq yondashuvlarini belgilab olish, tadbirkorlikni moliyaviy va nomoliyaviy qo'llab-quvvatlashning maqsadga yo'naltirilgan, ayniqsa, aholini tadbirkorlikka o'qitish va kasbga o'rgatish ishlarini tizimlashtirish, shu jumladan barcha dasturlar hisobidan ajratilayotgan mablag'larning sarflanish samaradorligini baholash ishlarini tashkil etishda kamchiliklar kuzatilmoqda.

Xulosa o'rnida shuni ma'lum qilamanki, biznes va tadbirkorlikni raqamlashtirish jamiyatimizda aholi qatlamlari turmush darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Biznesni raqamlashtirishda eng avvalo kompyuterlar va texnologiya ilmlariga asoslangan holda korxona boshqaruvining yangi turini isloh qilish maqsadga muvofiqdir. Biznesni raqamlashtirish korxonada ishlab chiqarish unumdorligini oshiradi, korxona faoliyatida daromadni oshirib, xarajatlarni kamayishiga sabab bo'ladi, va shu bilan birgalikda, korxona xodimlari bilan mijozlar o'rtasidagi muloqot va hamkorlikni rag'batlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi prezidentining “Iqtisodiyotni rivojlantirish va kambag'allikni qisqartirishga oid davlat siyosatini tubdan yangilash chora-tadbirlari to'g'risida” PF-5975-son farmoni. 26.03.2020 yil. <https://lex.uz>.
2. “Raqamli biznes modellar” darslik A.B.Bobojonov.



3. Эрназарова Н.Н. Оилавий тadbirkorлик фаолиятини ривожлантириш орқали камбағалликни қисқартириш//“Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 3, may-iyun, 2021 yil. 253-258 betlar.
4. Mamayev T.N. Tadbirkorlikni yanada rivojlantirish orqali kambag'allikni qisqartirish// JOURNAL OF MARKETING, BUSINESS AND MANAGEMENT (JMBM)/SJIF FACTOR: 5.57 VOLUME 1, ISSUE 11 (February) ISSN: 2181-3000 39-43-betlar.
5. <https://www.gazeta.uz/oz/2021/12/21/undp/> “O'zbekistonda tadbirkorlikni raqamlashtirishni qo'llab – quvvatlash loyihasi ishga tushirildi